



## ISSIQXONA TUPROG'IDA OG'IR METALLAR TA'SIRI

<sup>1</sup>Xo'jamshukurov Nortoji Abdixalikovich., <sup>2</sup>Avazova Oynabod Baratovna., <sup>3</sup>Kuchkarova Dilafruz Xurramovna., <sup>4</sup>Abdutilibov Muhridin Zuhridin o'g'li., <sup>5</sup>Rustamov Muxammadrizo Raxmatjon o'g'li

<sup>1</sup>Toshkent kimyo-texnologiya instituti, Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash ilmiy ishlab chiqarish markazi., <sup>2</sup>Polimer kimyo va fizika instituti, Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash ilmiy ishlab chiqarish markazi., <sup>3</sup>Toshkent arxitektura qurilish universiteti., <sup>4</sup>Andijon davlat universiteti., <sup>5</sup>Toshkent kimyo texnologiya instituti

### Maqola haqida ma'lumot

Qabul qilingan: 3.06.2024

Qayta qabul : 14.06.2024

Saytda mavjud : 15.06.2024

### Muallif (lar)

\*N.A.Xo'jamshukurov

O.B.Avazova

D.X.Kuchkarova

M.Z.Abdutilibov

M.R.Rustamov



### Muallif bilan aloqa

<https://orcid.org/0000-0001-7807-4737>

[nkhujamshukurov@mail.ru](mailto:nkhujamshukurov@mail.ru)

© N.A.Xo'jamshukurov va boshqalar  
UNIVERSAL xalqaro ilmiy jurnal

### Ochiq ma'lumotlar:

<https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal>

### Maxfiylik bayonoti

Materialni istalgan vosita yoki formatda nusxalash va qayta tarqatish hamda maqoladan to'g'ri iqtibos keltirish va litsenziyasini ko'rsatish sharti bilan istalgan maqsadda foydalanish mumkin.

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada bodringni issiqxona sharoitida yetishtirishda biogumusning og'ir metallar akkumulyatsiyasini oldini olishdagi ahamiyati ko'rsatib berilgan. Bunda, 3-5 kg/m<sup>2</sup> biogumus ta'sirida tuproqda xarakatchan og'ir metallar miqdori kamayib, tuproq ko'pchilik metallar bo'yicha o'rtacha ta'minlangan holatga kelganligi aniqlangan. Demak, biogumus tuproqning buferlik xossasini oshirib uning tarkibidagi og'ir metall kationlari uchun sorbent vazifasini o'taydi. Bodring yetishtirishda biogumusdan foydalanish asosan issiqxona tuproq tarkibidagi qo'rg'oshin, kadmiy, kobalt, rux va misning harakatchan shakldagi miqdorini keskin pasaytiradi.

**Tayanch so'zlar:** bodring, biogumus, substrat, issiqxona, og'ir metallar, Cucumis sativus L., Cucurbitaceae.

**Abstract:** This article shows the importance of biohumus in preventing the accumulation of heavy metals when growing cucumbers in greenhouse conditions. It has been established that the amount of mobile heavy metals in the soil decreased under the influence of vermicompost 3-5 kg/m<sup>2</sup>, and the soil became moderately rich in most metals. So, biohumus increases the buffering capacity of the soil and acts as a sorbent of heavy metal cations in its composition. The use of vermicompost when growing cucumbers dramatically reduces the amount of lead, cadmium, cobalt, zinc and copper in a mobile form in the greenhouse soil.

**Key words:** cucumber, biohumus, substrate, greenhouse, heavy metals, Cucumis sativus L., Cucurbitaceae.

## KIRISH (INTRODUCTION).

Bodring janubiy Osiyoda, ayniqsa Shimoliy G'arbiy Hindistondagi Himolayning issiq va nam iqlimida va Shimoliy Afrikada joylashgan davlatlarda katta miqdorda yetishtiriladi. Bu davlatlarning iqlim sharoiti yuqori harorat, namlik va yorug'lik intensivligida etarli miqdorda suv va oziqa moddalari bilan yetishtirishning unumdorlik talablariga mos keladi. Hindistonda bodring yetishtirish miloddan avvalgi 3000 yil oldin, Xitoyda esa miloddan avval 100 yil oldin yetishtirish boshlanganligi qayd etilgan [3].

## MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI (LITERATURE REVIEW).

Bodring jahonda eng ko'p issiqxonalarda yetishtiriladigan o'simlik hisoblanib [1-4], bodringning issiqxonalarda yetishtirish jarayonidagi o'sib-rivojlanishi, uning fiziologiyasi, biokimyosi hamda hosildorlikka ta'sir ko'rsatuvchi omillar haqida juda ko'plab ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilganligi bilan xarakterlanadi [5]. Ammo, ilmiy manbalarda bodringni issiqxonalarda yetishtirish jarayonida og'ir metallarning migratsiyasiga biogumusning ta'siri va bodring mevasidagi nitratlarning harakatchanligi bo'yicha yetarli ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmagan [6, 7].

Ishning maqsadi. Shu boisdan mazkur tadqiqot ishida issiqxona sharoitida bodring yetishtirishda biogumudan foydalanish natijasida og'ir metallarning akkumulyatsiyasini o'rganish hisoblanadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI (RESEARCH METHODOLOGY).

Ishning ushbu bosqichida organik o'g'it, biogumusning yopiq tuproq sharoitida substratning agrokimyoviy ko'rsatgichlari, bodring ko'chatini o'sishi va rivojlanishiga ta'siri issiqxona sharoitida "Avitsena" F1 navli bodring ko'chati yetishtirish davomida aniqlandi. Tadqiqotlarda tajriba sxemasi bilan farqlanuvchi, amalda keng qo'lanilib kelinayotgan mavjud texnologiyadan foydalanildi. Ushbu texnologiya bo'yicha o'tkazilgan tajribalarda substratga mineral

o'g'itlarni qo'shish uni to'vaklarga solishdan ikki hafta oldin amalga oshirildi. Tegishli miqdordagi biogumusni qo'shish esa uni to'vakga solish oldidan bajarildi. Ekiladigan bodring urug'i 1 soat davomida 1%li  $KMnO_4$  eritmasida ivitilib oqib turgan suvda yuvilgandan so'ng suyultirilgan (1:50 nisbatda)  $Na_3RO_4$  eritmasida 1 sutka davomida ushlab turildi. Ekish davriga kelib asosiy qismi kurtak chiqarib qolgan urug' donalari hajmi 500 ml bo'lgan to'vaklarga ekildi. Ko'chatni joylashtirish zichligi har kvadrat metrda 45 donani tashkil etib, ular unib chiqqancha yorug'lik o'tkazuvchi polietilen plyonka bilan yopib qo'yildi. Ko'chatni o'nib chiqish davrida harorat 25-28°C oralig'ida ushlab turildi. Ko'chat o'nib chiqish boshlanishi bilan plyonka ochib tashlandi va harorat 22-24°C gacha pasaytirildi. Birinchi uch kun davomida ko'chat turgan joy qo'shimcha yoritib qo'yildi (texnologiyaning bu bosqichi qish faslida quyosh radiatsiyasi past bo'lgan sharoitlarda zarur). Qolgan kunlarda 12-16 soat davomida yoritildi va tajriba maydonining yoritilganlik darajasi 4-5 ming lyuksni tashkil etdi. Sutkaning qorong'ilik davrida havo harorati 19-20°C da saqlandi. Ko'chatni issiqxonadagi doimiy joyiga ko'chirish 30 kundan keyin amalga oshirildi.

Nazorat varianti sifatida tarkibida yetarli miqdorda mineral shakldagi oziq elementlari mavjud bo'lgan va hozirgi kunda ko'pchilik katta issiqxonalarda keng ishlatiladigan 1:1 nisbatdagi tuproq – yog'och qirindisi aralashmasidan foydalanildi. Nazorat variantiga boshlang'ich aralashma tarkibida oziq elementlar miqdorini optimal qiymatlarini ta'minlash maqsadida mineral o'g'itlardan (ammiakli selitra, qo'sh superfosfat va kaliy sulfatdan) foydalanildi. Tajribalarda 1 m<sup>3</sup>

boshlang'ich aralashmaga 600 g ammiakli selitra, 125 g granullangan qo'sh superfosfat, 455 g kaliy xlorid va 115 g magniy sulfat tuzlari qo'shildi. Ko'chatining rivojlanishiga biogumus miqdorini ta'siri, agrokimyoviy tahlillar bilan birga o'tkazilgan fenologik kuzatuvlar va biometrik tadqiqotlar yordamida aniqlandi [1].

**TAHLIL VA NATIJALAR  
(ANALYSIS AND RESULTS)**

O'tkazilgan uch yillik tajribalar davomida bodring yetishtirilgan issiqxona tuprog'i tarkibidagi og'ir metallar miqdoriga biogumusning ta'siri nazorat qilindi. Hozirgi kunda ko'pchilik metallarning tuproq va qishloq xo'jalik mahsulotlari tarkibidagi ruxsat etilgan eng yuqori me'yori (REM) tasdiqlangan.

Issiqxona sharoitida qishloq xo'jalik mahsulotlari shu jumladan bodring tarkibidagi og'ir metallar miqdori ularning tuproqdagi yalpi miqdoridan ko'ra ko'proq harakatchan shakldagi miqdoriga bog'liq. Shu sababli issiqxona sharoitida tuproqning og'ir metallar bilan ifloslanganlik darajasini baholashning asosiy usuli ularning harakatchan shaklini aniqlashga asoslangan [5, 6, 7, 8]. Tarkibidagi harakatchan shakldagi og'ir metallar miqdoriga ko'ra tuproqning qator klassifikatsiyalari mavjud bo'lib, Obuxov va Renks tomonidan tuzilgan klassifikatsiyalar 1-2-jadvallarda keltirilgan [3].

**1-jadval**

**Tuproqni tarkibidagi harakatchan shakldagi og'ir metallar miqdori va ifloslanishi bo'yicha klassifikatsiyasi (havo quruq tuproqqa nisbatan), mg/kg [3]**

Gradatsii	Pb	Pb	Cd	Cu	Ni	Co
<b>Miqdori</b>						
<b>Juda kam</b>	<0,2	<0,02	<1	<0,2	<0,2	<0,1
<b>Kam</b>	0,2-0,5	0,02-0,05	1-2	0,2-0,5	0,2-0,5	0,1-0,2
<b>O'rtacha taminlangan</b>	0,5-1,5	0,05-0,10	2-5	0,5-2,0	0,5-1,5	0,2-0,5
<b>Yuqori</b>	1,5-5,0	0,10-0,50	5-20	2,0-5,0	1,5-5,0	0,5-3,0
<b>Ifloslanishi</b>						
<b>Kuchsiz (REM)</b>	5-10	0,5-1,0	20-50	5-10	5-10	3-5
<b>O'rtacha</b>	10-50	1,0-3,0	50-100	10-50	10-50	5-25
<b>Kuchli</b>	50-100	3,0-5,0	100-200	50-100	50-100	25-50
<b>Juda kuchli</b>	>100	>5,0	>200	>100	>100	>50

**2-jadval**

**Tuproq tarkibidagi mikroelementlar miqdori Rinkis bo'yicha [3]**

Tuproqning ta'minlanganlik darajasi	Tuproqdagi elementlar miqdori, mg/kg					
	V	Su	Mn	Mo	Zn	Co
<b>Juda kam</b>	<0.1	<0.3	<1	<0.05	<0.2	<0.2
<b>Kam</b>	0.1-0.2	0.3-1.5	1-10	0.05-0.15	0.2-1.0	0.2-1.0
<b>O'rtacha ta'minlangan</b>	0.3-0.5	2-3	20-50	0.20-0.25	2-3	1.5-3.0
<b>Yuqori</b>	0.6-1	4-7	60-100	0.3-0.5	4-5	4-5
<b>Juda yuqori</b>	>1	>7	>100	>0.5	>5	>5

Uch yillik tadqiqotlar davomida hosili yig'ib olinib tajriba tugatilgandan so'ng tajriba uchastkasi tuprog'ining shudgor qavati tarkibidagi Cd, Co, Cr, Cu, Mn, Ni, Pb, Zn va Mo ning harakatchan shakldagi miqdoriga (mg/kg), tuproqqa qo'shilgan biogumusning(kg/m2) ta'siri tekshirildi. Tajribada og'ir metallarni aniqlash amaliyotida keng qo'llaniladigan usullaridan foydalanildi. 3-jadvalda 2019-2021 yillardagi hosil yig'ib olinib tajriba tugatilgan issiqxona tuprog'i tarkibidagi og'ir metallarning uch yillik o'rtacha qiymati keltirilgan.

**Hosil yig'ib olingan tuproq tarkibida og'ir metallarni aniqlash natijalari (o'rtacha, 2019-2021 yillar)**

№	Biogumus me'yori, kg/m <sup>2</sup>	Hosil yig'ib olingan tuproq tarkibidagi harakatchan formadagi og'ir metallar miqdori, mg/kg								
		Cd	Co	Cr	Cu	Mn	Ni	Pb	Zn	Mo
1	N <sub>350</sub> P <sub>250</sub> K <sub>170</sub>	0,38	0,45	1,53	2,9	46,6	0,84	4,89	44,37	0,16
2	N <sub>350</sub> P <sub>250</sub> K <sub>170</sub> +B <sub>10</sub> (1)	0,31	0,25	1,40	2,48	41,90	0,76	3,25	32,78	0,16
3	N <sub>350</sub> P <sub>250</sub> K <sub>170</sub> +B <sub>20</sub> (1+1)	0,18	0,19	1,29	2,30	36,32	0,77	2,23	22,1	0,14
4	N <sub>350</sub> P <sub>250</sub> K <sub>170</sub> +B <sub>30</sub> (1+1+1)	0,10	0,13	1,12	1,09	28,54	0,59	1,26	13,16	0,12
5	N <sub>350</sub> P <sub>250</sub> K <sub>170</sub> +B <sub>40</sub> (1+1+1+1)	0,08	0,15	1,06	1,25	28,69	0,65	1,17	12,91	0,11
6	N <sub>350</sub> P <sub>250</sub> K <sub>170</sub> +B <sub>50</sub> (1+1+1+1+1)	0,08	0,12	1,06	1,03	28,63	0,58	1,35	12,4	0,11
7	B <sub>50</sub> (2+1+1+1)	0,07	0,08	0,80	0,87	22,53	0,57	1,13	9,93	0,10
8	B <sub>80</sub> (3+2+1+1+1)	0,07	0,10	0,84	0,68	22,31	0,54	1,02	9,45	0,09
9	N <sub>350</sub> P <sub>250</sub> K <sub>170</sub> +B <sub>40</sub> (40)	0,06	0,07	0,59	0,66	18,03	0,36	0,71	8,01	0,07
10	N <sub>350</sub> P <sub>250</sub> K <sub>170</sub> +N <sub>90</sub> (3+2+2+2)	0,33	0,34	1,44	2,46	41,48	0,72	3,49	37,17	0,18

Tajriba o'tkazilgan barcha holatlarda kontrol variant tuprog'i tarkibidan aniqlangan og'ir metallarning miqdori ularning gigenik normativlar bo'yicha tasdiqlangan tuproqdagi ruxsat etilgan me'yoridan past [9]. Uch yillik tajribalardagi biogumus qo'llanilmagan nazorat varianti tuprog'i tarkibida og'ir

metallarning miqdori: Cd-0,34-0,42 mg/kg; Co-0,39-0,50 mg/kg; Cr-1,48-1,59 mg/kg; Cu-2,82-2,91 mg/kg; Mn-45,80-47,2 mg/kg; Ni-0,81-0,87 mg/kg; Pb-4,75-5,07 mg/kg; Zn-41,97-46,00 mg/kg; Mo-0,17-0,14 mg/kg ni tashkil etdi (4-jadval) [5, 6].

4-jadval.

**Issiqxona sharoitida bodring yetishtirishda tuproq tarkibidagi og'ir metallar miqdoriga biogumusning ta'siri**

№	Tuproqqa qo'llanilgan biogumus miqdori kg/m <sup>2</sup>	Hosil yig'ib olingan tuproq tarkibidagi harakatchan formadagi og'ir metallar miqdori, mg/kg								
		Cd	Co	Cr	Cu	Mn	Ni	Pb	Zn	Mo
<b>2019 yil</b>										
1	N <sub>350</sub> P <sub>250</sub> K <sub>170</sub>	0,34	0,39	1,51	2,82	45,80	0,87	5,07	46,00	0,16
2	N <sub>350</sub> P <sub>250</sub> K <sub>170</sub> +B <sub>10</sub> (1)	0,31	0,27	1,44	2,51	42,61	0,78	3,41	31,11	0,16
3	N <sub>350</sub> P <sub>250</sub> K <sub>170</sub> +B <sub>20</sub> (1+1)	0,20	0,21	1,32	2,26	36,87	0,78	2,03	22,11	0,15
4	N <sub>350</sub> P <sub>250</sub> K <sub>170</sub> +B <sub>30</sub> (1+1+1)	0,10	0,14	1,12	1,21	29,61	0,61	1,21	14,23	0,13
5	N <sub>350</sub> P <sub>250</sub> K <sub>170</sub> +B <sub>40</sub> (1+1+1+1)	0,09	0,13	1,10	1,36	29,57	0,66	1,41	15,41	0,12
6	N <sub>350</sub> P <sub>250</sub> K <sub>170</sub> +B <sub>50</sub> (1+1+1+1+1)	0,09	0,15	1,10	1,00	29,70	0,60	1,61	13,73	0,12
7	B <sub>50</sub> (2+1+1+1)	0,08	0,10	0,83	0,79	23,40	0,58	1,23	12,83	0,11
8	B <sub>80</sub> (3+2+1+1+1)	0,08	0,12	0,87	0,72	23,52	0,55	1,11	11,20	0,10
9	N <sub>350</sub> P <sub>250</sub> K <sub>170</sub> +B <sub>40</sub> (40)	0,06	0,08	0,63	0,70	18,90	0,38	0,73	9,30	0,08
10	N <sub>350</sub> P <sub>250</sub> K <sub>170</sub> +N <sub>90</sub> (3+2+2+2)	0,30	0,32	1,30	2,36	37,5	0,77	3,40	33,17	0,15
<b>2020 yil</b>										
1	N <sub>350</sub> P <sub>250</sub> K <sub>170</sub>	0,42	0,50	1,59	2,91	46,8	0,81	4,86	45,13	0,17
2	N <sub>350</sub> P <sub>250</sub> K <sub>170</sub> +B <sub>10</sub> (1)	0,33	0,23	1,39	2,46	42,6	0,75	3,16	35,21	0,15

3	N <sub>350</sub> P <sub>250</sub> K <sub>170</sub> +B <sub>20</sub> (1+1)	0,18	0,18	1,29	2,44	37,8	0,77	2,28	24,21	0,13
4	N <sub>350</sub> P <sub>250</sub> K <sub>170</sub> +B <sub>30</sub> (1+1+1)	0,09	0,11	1,10	0,98	29,0	0,58	1,39	13,33	0,12
5	N <sub>350</sub> P <sub>250</sub> K <sub>170</sub> +B <sub>40</sub> (1+1+1+1)	0,08	0,18	1,05	1,14	29,5	0,65	1,01	12,51	0,11
6	N <sub>350</sub> P <sub>250</sub> K <sub>170</sub> +B <sub>50</sub> (1+1+1+1+1)	0,06	0,11	1,05	0,91	29,1	0,57	1,16	11,83	0,10
7	B <sub>50</sub> (2+1+1+1)	0,08	0,07	0,80	0,96	23,4	0,56	1,08	8,93	0,09
8	B <sub>80</sub> (3+2+1+1+1)	0,06	0,08	0,84	0,61	22,5	0,54	1,06	9,34	0,08
9	N <sub>350</sub> P <sub>250</sub> K <sub>170</sub> +B <sub>40</sub> (40)	0,05	0,06	0,59	0,58	18,9	0,35	0,78	7,45	0,06
10	N <sub>350</sub> P <sub>250</sub> K <sub>170</sub> +N <sub>90</sub> (3+2+2+2)	0,38	0,37	1,51	2,63	43,0	0,70	3,58	37,24	0,20
<b>2021 yil</b>										
1	N <sub>350</sub> P <sub>250</sub> K <sub>170</sub>	0,38	0,46	1,48	2,98	47,2	0,85	4,75	41,97	0,14
2	N <sub>350</sub> P <sub>250</sub> K <sub>170</sub> +B <sub>10</sub> (1)	0,31	0,24	1,37	2,49	40,5	0,76	3,19	32,01	0,14
3	N <sub>350</sub> P <sub>250</sub> K <sub>170</sub> +B <sub>20</sub> (1+1)	0,17	0,17	1,26	2,26	34,3	0,75	2,39	19,98	0,13
4	N <sub>350</sub> P <sub>250</sub> K <sub>170</sub> +B <sub>30</sub> (1+1+1)	0,10	0,13	1,08	1,09	27,0	0,59	1,19	11,93	0,10
5	N <sub>350</sub> P <sub>250</sub> K <sub>170</sub> +B <sub>40</sub> (1+1+1+1)	0,06	0,15	1,05	1,25	27,0	0,64	1,10	10,81	0,10
6	N <sub>350</sub> P <sub>250</sub> K <sub>170</sub> +B <sub>50</sub> (1+1+1+1+1)	0,08	0,10	1,03	1,18	27,1	0,58	1,29	11,63	0,11
7	B <sub>50</sub> (2+1+1+1)	0,06	0,07	0,78	0,87	20,8	0,56	1,07	8,03	0,10
8	B <sub>80</sub> (3+2+1+1+1)	0,06	0,09	0,82	0,71	20,9	0,53	0,90	7,81	0,09
9	N <sub>350</sub> P <sub>250</sub> K <sub>170</sub> +B <sub>40</sub> (40)	0,06	0,08	0,57	0,69	16,3	0,36	0,61	7,28	0,07
10	N <sub>350</sub> P <sub>250</sub> K <sub>170</sub> +N <sub>90</sub> (3+2+2+2)	0,31	0,33	1,51	2,39	43,9	0,77	3,49	40,10	0,19

Demak, og'ir metallar miqdoriga ko'ra biogumus qo'shilmagan tajriba maydoni tuprog'i qo'rg'oshin va ruh bo'yicha yengil ifloslangan, kadmiy, xrom, mis bo'yicha yuqori darajada ta'minlangan va kobolt, marganes, nikel hamda molibden bo'yicha o'rtacha darajada ta'minlangan tuproq kategoriyasiga kiradi (2-jadval).

3-jadvalda keltirilgan natijalardan tuproqqa qo'llanilgan biogumus ta'sirida uning tarkibidagi harakatchan shakldagi og'ir metallar miqdorini kamayishini ko'ramiz. Keltirilgan uch yillik tadqiqotlarning tahlilidan (3-jadval) issiqxona sharoitida biogumusning tuproq tarkibidagi og'ir metallarga ta'siri barcha metallar uchun bir xil bo'lmasdan har bir metall uchun o'ziga xos degan xulosaga kelish mumkin. Bir xil miqdorda qo'shilgan biogumus ta'sirida ayrim metallar miqdorini keskin kamayishi kuzatilsa, boshqa metallarning kamayishi nisbatan past darajada bo'ldi. Bunda barcha metallar uchun umumiy holat tuproqqa qo'llanilgan biogumus me'yorini ortib borishiga mos ravishda harakatchan shakldagi metall ionlari miqdorini kamayib borishidir. Biogumus me'yoring

ortib borishiga mos ravishda miqdori eng keskin kamaygan metall qo'rg'oshin ekanligi qayd etildi. Uning biogumus berilmagan nazorat variantidagi uch yillik o'rtacha miqdori 4,89 mg/kg teng bo'lib, bunday tuproq og'ir metallar miqdori va ifloslanish tasnifi bo'yicha qo'rg'oshin bilan kuchsiz ifloslangan tuproq toifasiga mansub. Uch yillik tajribalar davomida solingan 1-5 kg/m<sup>2</sup> biogumus ta'sirida tuproq tarkibidagi qo'rg'oshin miqdori 1,5-7,1 martagacha kamayishi kuzatildi (4-jadval). Natijada tuproq tarkibidagi biogumus qo'llanilgandan keyingi eng kam qo'rg'oshin miqdori 0,71mg/kg ni tashkil etdi. Bunday tuproq 1-2-jadvallarga ko'ra qo'rg'oshin bilan o'rtacha ta'minlangan tuproq toifasiga mansubligini ko'rish mumkin. 3-jadvalda keltirilgan tajriba natijaliridan biogumus ta'sirida tuproq tarkibidagi kadmiy, kobolt va ruxning miqdorini sezilarli darajada kamayishini ko'ramiz. Faqat mineral o'g'it qo'llanilgan nazorat varianti tuprog'i undagi kadmiy, kobolt va rux miqdoriga ko'ra og'ir metallar

bilan kuchsiz ifloslangan yoki yuqori darajada ta'minlangan tuproq toifasiga mansubdir. Tajriba davomida 5 kg/m<sup>2</sup> gacha qo'llanilgan biogumus ta'sirida yuqorida keltirilgan metallar miqdori 5,5 dan 6,6 martagacha kamaydi va tajriba maydoni tuprog'i kadmiy, kobolt va rux bilan o'rtacha yoki kam ta'minlangan tuproq toifasiga mansubligi qayd etildi. Me'yori 5 kg/m<sup>2</sup> gacha bo'lgan biogumus ta'sirida issiqxona tuprog'i tarkibidagi harakatchan shakldagi mis miqdori uning nazorat variantidagi miqdoriga nisbatan 4,5 martaga kamayganligi aniqlandi. Qo'llanilgan bir xil me'yordagi biogumus ta'sirida miqdoring eng kam kamaygan metallar molibden, marganes va xrom bo'lib ularning 5 kg/m<sup>2</sup> biogumus ta'siridagi kamaygan qismi boshlang'ich miqdoring 2,3-2,6 karrasini tashkil etdi.

## **XULOSA VA TAKLIFLAR (CONCLUSION/RECOMMENDATIONS)**

Shunday qilib, 3-5 kg/m<sup>2</sup> biogumus ta'sirida tuproqda xarakatchan og'ir metallar miqdori kamayib, tuproq ko'pchilik metallar bo'yicha o'rtacha ta'minlangan holatga kelganligi aniqlandi. Demak, biogumus tuproqning buferlik xossasini oshirib uning tarkibidagi og'ir metallar kationlari uchun sorbent vazifasini o'taydi. O'tkazilgan tadqiqotlarda kuzatilgan natijalar, yopiq tuproq sharoitida og'ir metallar bilan ifloslangan tuproq sifatini unga biogumus qo'shish orqali og'ir metallarni organik fazaga birlashtirish yo'li bilan yaxshilash mumkinligini tasdiqlaydi. Bodring yetishtirishda biogumusdan foydalanish asosan issiqxona tuproq tarkibidagi qo'rg'oshin, kadmiy, kobalt, rux va misning harakatchan shakldagi miqdorini keskin pasaytiradi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Доспехов Б.А. Методика полевого опыта. М.: Агропромиздат, 1985. -351 с.
2. Гейслер Т. Производство овощей под стеклом и пленкой/ Пер. с нем. Н.С. Корогорова., Т.П.Шульцева. –М.: Колос, 1979. с.312 с.
3. Обухов А.И., Попова А.А. Баланс тяжелых металлов в агроценозах дерново-подзолистых почв и проблемы мониторинга //Вестник Московского университета, сер.17. Почвоведение. 1992. №3. С.31-39.
4. Методические указания по определению тяжелых металлов в почвах сельхозугодий и продукции растениеводства. Изд. 2-е. Минсельхоз России, ЦИНАО. М., 1992. 61с.
5. Плеханова И.О., Савельева В.А. Влияние мелиорантов на состояние кобальта в почве и его поступление в растения. Агрехимия. 1997. № 8. С. 68-73.
6. Khujamshukurov N., Eshkobilov Sh.A., Kuchkarova D.X., Bashirova Yu.J. (a) Influence of biohumus on the content of heavy metals in soil. International conference on trends & innovations in food technology. 24-25 november, 2022 (TIFT-2022). Integral University, Lucknow, India. P.85.
7. Хужамшукуров, Н., Эшкобилов, Ш., Дилафруз, К., & Абдутолибов, М. (2023). ВЛИЯНИЕ БИОГУМУСА НА СОДЕРЖАНИЕ НИТРАТОВ В РАСТЕНИЯХ И ПЛОДАХ ОГУРЦА. *Universum: химия и биология*, (1-1 (103)), 24-29.
8. Брызгалов В.А. 1983. Овощеводство защищенного грунта: [По спец.1503 "Плодоовощеводство и виноградарство"] / В.А.Брызгалов, В.Е.Советкина, Н.И.Савинова; Под ред. В.А.Брызгалова. -Л.: Колос: Ленингр. Отделение. -352 с.
9. Гигиенические нормативы ГН 2.1.7.2042-06 «Ориентировочно допустимые концентрации химических веществ в почве».